


Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 099,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 34,2 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 893,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 36,6 % ga oshdi.



•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 176,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga oshdi.

•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 885,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 38,1 % ga oshdi.

•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 903.6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 28,5 % ga oshdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 638.2 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 10,9 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 300.2 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 20.1 % ga oshdi.




•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 099.3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 20,5 % ga oshdi.

Umuman, barcha turdagi xo'jalik faoliyati uchun joriy 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 503.2 ming so'mni tashkil qilib (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantiruvchi, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlarni ham o'z ichiga oladi), 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 23.7 foizga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


(2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori sanoat 2 099,3 ming so'mni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinlar qurilish 1 893, 5 ming so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1 903,6 ming so'mni o'z ichiga olmoqda.

2017 yilning mos davri bilan solishtirganda, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati **qurilish sohasida 36,6 foiz**, axborot va aloqa sohasida 28,5 foiz, eng past o'sish sur'ati sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 20,1 foiz va ta'lim sohasida 20,1 foizni tashkil etmoqda.

Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona (1 953,8 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,9 foiz), Quvasoy (1 701,5 ming so'm), Qo'qon (1 653,2 ming so'm) shaharlari hamda Toshloq tumanida (1 582.,1 ming so'm) kuzatildi. Ish haqining eng past miqdori esa Buvayda (1 145,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 76,2 foiz) va Beshariq (1 119,1 ming so'm) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati Toshloq (130,1 foiz), O'zbekiston (123,7 foiz) va Beshariq (123,7 foiz) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, aksincha, past o'sish sur'ati Quvasoy shahri (117,4 foiz) va Rishton tumani (120,0 foiz) da aniqlandi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, foizda)

	2017 yil	2018 yil	Osish sur'ati
Farg'ona viloyati	1214,9	1503,2	123,,7
Farg`ona	1507,1	1953,8	129,6
Qo'qon	1305,2	1653,2	126,7
Quvasoy	1449,88	1701,5	117,4
Marg'ilon	1101,4	1342,1	121,9
Oltiariq	1031,1	1226,5	119,0
Qo'shtepa	1029,1	1234,1	119,9
Bog'dod	1058,6	1281,7	121,1
Buvayda	955,5	1145,7	119,9
Beshariq	904,5	1119,1	123,7
Quva	1041,1	1205,4	115,8
Uchko'prik	994,9	1201,9	120,8
Rishton	992,5	1190,5	120,0
So'x	1116,4	1325,3	118,7
Toshloq	1215,7	1582,1	130,1
O'zbekiston	945,2	1169,4	123,7
Farg`ona t	994,1	1174,9	118,2
Dang'ara	993,2	1195,8	120,4
Furqat	1016,2	1260,7	124,1
Yozyovon	1084,8	1311,0	120,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublika va viloyat miqyosida hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdorlari

(2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Faoliyat turi	Respublika	Viloyat	Farqi (+;-)
Sanoat	2731.1	2099.3	76.9
Qurilish	2297.3	1893.5	84.6
Savdo	1990.3	2176.2	109.3
Tashish va saqlash	2507.4	1685.9	75.2
Axborot va kommunikatsiya	3347.5	1903.6	56.9
Moliya va sug'urta faoliyati	3500.5	2638.2	75.4
Ta'lim	1396.4	1300.2	93.1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1173.1	1099.3	93.7
Boshqalar	1711.2	1411.9*	83.4

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida **501959,5** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Statistika demography va mehnat bo'limi
Ma'sul: O. Holbekov
Telefon: (73) 230-87-33